

SHAXS SHAKLLANISHIDA MOTIVATSIYANING ROLI

Boboraxmatova Marjona Valijonovna

Termiz Davlat Universiteti

Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs shakllanishida motivatsiyaning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Motivatsiya inson faoliyatini faollashtiruvchi, uning maqsadga yo'naltirilgan harakatlarini boshqaruvchi psixologik omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shaxsning ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanish jarayonida motivatsiyaning shakllanishi, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, motivatsiya, rivojlanish, shaxs shakllanishi, ichki omillar, tashqi omillar, psixologik omil, ta'lim va tarbiya.

Annotation: This article analyzes the role and importance of motivation in the formation of personality. Motivation is viewed as a psychological factor that activates human activity and directs actions toward achieving goals. The study highlights the process of motivation development during social, emotional, and cognitive growth, the influence of internal and external factors, and the role of motivation in education and upbringing.

Keywords: personality, motivation, development, personality formation, internal factors, external factors, psychological factor, education and upbringing.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение мотивации в формировании личности. Мотивация рассматривается как психологический фактор, активизирующий деятельность человека и направляющий его действия на достижение цели. Освещаются процессы формирования мотивации в ходе социального, эмоционального и когнитивного развития личности, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на этот процесс, и роль мотивации в воспитании и обучении.

Ключевые слова: личность, мотивация, развитие, формирование личности, внутренние факторы, внешние факторы, психологический фактор, образование и воспитание.

Garchand psixologik adabiyotlarda ayniqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko'p bora ko'tarilgan bo'lsa-da, batafsil yoritilmagan. Masalan, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situasion mayllar ma'lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atroflicha chuqurroq o'rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha

talqin qilingan. Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv - bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir. S.L.Rubinshteynning "motiv bu ehtiyojning his qilirdshi va qondirilishi" deb takidlaydi. "Motivatsiya - bu psixika orqali amalga oshuvchi determinasiyadir" deb takidlaydi, S.L. Rubinshteyn.

A.N.Leontev - Motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqelik deb hisoblaydi. Motiv -ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: "Turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatdat motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi". V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S.Merlin bo'yicha motivlari tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya - insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalami, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Respublikamizda ham motiv va motivatsiya ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan keng miqyosda o'rganib kelinmoqda. Jumladan:

V.A.Tokarevaning "Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy burchga nisbatan shakllanish psixologiyasiga" bag'ishlangan tadqiqotlarida o'quvchilar o'quv faoliyati motivlarini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarda va izlanishlarida burch motivini shakllanishiga jamiyataing ta'sirini o'rganish muhim ekanlidi ko'rsatib o'tiladi.

E.G'.G'oziyev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash jarayonlari baqida mulohaza yuritiladi.

A.F.Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivasion o'z-o'zini boshqarishning turli-tuman omillari ham ko'rib chiqilgan. Aniqlangan bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga motivasion boshqarishning amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir.

E.Z.Usmonovanning ilmiy tadqiqotida o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolari o'rganilgan. Tadqiqot davomida ikki asosiy motivatsiya toifasining munosibligini tushunish muhim bo'lgan.

F.I.Haydarovning "Qishloq maktabi o'quvchilarida o'qish motivlarining shakllanishi" nomli ilmiy izlanishlarida o'quv motivlari ularning xususiyatlari, o'qitish jarayonida ijobiy va salbiy motivlarning ta'siri keng qamrovda o'rganilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq holda o'qish motivlarini namoyon bo'lishining regional tafovutlarni o'rganishga asosiy e'tiborni qaratgan. Muallifning ishlariga nazar tashlar ekanmiz, o'qish motivlarini bir qator turkumlarga ajratgani, ya'ni obro'ga intilish, muvaffaqiyatga erishish va boshqalarni yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv, subyektiv omillarni, shuningdek rivojlanish mexanizmlarini ishiab chiqqanligini ko'ramiz. u esa ta'lim faoliyatida o'quvchiga samarali yondashish mezonini hisoblanadi.

Muvaffaqiyatli motivatsiya – bu faqat shaxs ichidagi omillarga emas, balki tashqi muhitga ham kuchli bog'liq jarayondir. Muhit shaxsni rag'batlantiradi yoki cheklaydi, u xatti – harakatlar, maqsadlar va ichki motivatsiyaning qaysi turiga yo'naltirilishini belgilaydi.

Motivatsiya insonning psixik jarayonlari va ularning o'zaro bog'liqligida ham katta ahamiyatga ega. Masalan, motivatsiya diqqat, xotira va fikrlash bilan chambarchas bog'liq. Intilishlar kuchli bo'lganda, odam o'z ustida yanada ko'proq mehnat qiladi, qiyinchiliklarga bardosh beradi va natijalarga erishishga intiladi. Aksincha, motivatsiya sust bo'lganda, shaxsda qiziqish yo'qoladi, faollik kamayadi va natijalar pasayadi. Shu nuqtai nazardan, o'quv jarayonida yoki ish faoliyatida motivatsiyani uyg'otish to'g'ri muhit yaratish, maqsadlarni aniqlashtirish va rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy psixologiya nazariyalari motivatsiyaning inson shaxsiyatining shakllanishida asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Shaxsning maqsadlari, qadriyatlari va ularning jamiyatdagi roli motivatsion tizim sifatida ishlaydi. Shu bois, samarali motivatsiya tizimini yaratish shaxsning rivojlanish yo'lida muhim qadam bo'ladi. Bundan tashqari, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi va o'zini anglash darajasi ham motivatsiya bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini qadriga yetgan inson o'z orzulari sari kuchli intiladi va qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo'ladi.

Shaxs shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan motivatsion omillar qatoriga ijtimoiy rag'batlar, cheklovlar, qadriyatlarning o'zgarishi va shaxsning ichki tajribalari kiradi. Masalan, yoshlarda o'zini topish va jamiyatda o'rin olish istagi katta motivatsiyaga ega. Shu bilan birga, shaxs muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, yangi maqsadlar qo'yish, eski xatoliklardan saboq olish va yanada kuchli harakat qilish zarur bo'ladi. Bu jarayonda motivatsiyaning roli yanada oshadi, chunki u shaxsni qiyinchiliklarga qaramay rivojlanishga undaydi.

Nazariy va amaliy ma'lumotlarga asoslanib, ilk bolalik davridagi individning xulq-atvori, birinchilardan, impulsivlik bilan, ikkinchidan, vujudga kelgan vaziyat xususiyati bilan tavsiflanadi. Shaxsni boshlang'ich genetik qobig'idagi shakllanish

pallasidagi motivning dinamik asosi - xatti- harakati qo'zg'alishini muvaqqat, tor muhitidan tashkil topadi. Chunki bola hali motivlashgan ustanovkalarni uzoq vaqt ushlab tura olmasligi sababli u tez yo'qoladi. Muhim ahamiyat kasb etuvchi qo'zg'alishlarda bola chalg'isa, demak, ularni u tezda esdan chiqaradi. Extiyoj qondirilishida, affektiv reaksiyalarda, chalg'ish jarayonida qo'zg'alish berilgan vaqt doirasidan chetlashadi.

Inson faoliyatining samaradorligini oshirish haqidagi psixologik usulning rolini L.S.Slavina uchinchi- to'rtinchi sinf o'quvchilarida tajriba yo'li bilan dalillab berdi. L.S.Slavina murakkab va uzoq davom etadigan faoliyatlarni tahlil qilish kezida uni nisbatan mustaqil va soda tarkibiy qismlarga ajratib chiqadi hamda ularni har birini alohida nazorat qilish kerak, binobarin, uni xuddi mustaqil faoliyat strukturasining takomillashuvi va rivoji namoyon bo'ladi. Muallifning fikriga qaraganda, xulq – atvorning muayyan maqsadga bo'ysundirilishi kichik maktab yoshining pirovard bosqichida amalga oshirilib, mazkur bosqich ixtiyoriy xulq- atvor shakllanishining boshlang'ich davri bo'lib hisoblanadi.

Inson motivatsiyasining asosiy turlariga ikkita komponent kiradi. Ichki motivlar shaxsning o'zida shakllanadi va masalan, yangi joyni ko'rish yoki o'z tajribasini kengaytirish istagi orqali namoyon bo'lishi mumkin. Tashqi motivlar esa ko'pincha ijtimoiy yoki moddiy rag'batlar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ba'zan biron bir istak tashqi sabab bilan uyg'otilishi mumkin. Demak, motivatsiya inson ehtiyojlari, istaklari va maqsadlariga bevosita bog'liq bo'lib, harakatga undovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o'zgarishi - motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi.

Ichki motivatsiya shaxsning faoliyatga bo'lgan tabiiy qiziqishi va ichki ehtiyojlarini qondirish istagi bilan belgilanadi. Ichki motivatsiya odamlarni faqat mukofot yoki tashqi rag'bat uchun emas, balki faoliyatning o'zidan zavq olish uchun harakat qilishga undaydi. Masalan, talaba darslarni faqat baho olish uchun emas, balki bilim olish jarayonidan qoniqish topgani uchun ham o'qishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiya yuqori bo'lgan shaxslar ijodkorlikda, o'qishda va kasbiy faoliyatda yanada samarali bo'ladi.

Tashqi motivatsiya esa shaxsning faoliyatini tashqi omillar – mukofot, jazo, maosh olish uchun samaradorligini oshirishi yoki talaba yuqori baho olish uchun ko'proq tayyorlanishi mumkin. Tashqi motivatsiya ichki motivatsiyaga qaraganda ko'proq vaqtinchalik va beqaror deb ta'riflagan, chunki u ko'pincha tashqi sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, to'g'ri yo'naltirilgan tashqi rag'bat shaxsni ichki motivatsiya tomon ham rivojlantirishi mumkin.

Shaxs motivatsiyasi shakllanishida muhitning ham roli mavjud. Masalan, ota-onadan kelgan qo'llab – quvvatlash, kutilmalar va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati bolalarda ichki motivatsiyani shakllantiradi. Inson bolaligida olingan avtonomiya va kompetensiya tajribalari keyingi motivatsion uslubni belgilaydi. O'qituvchining xulq – atvori o'quvchilarning ishtiyoqi, bandligi va ichki motivatsiyasini oshiradi. Strukturaviy yondashuv bilan avtonomiya qo'llab – quvvatlansa, motivatsiya va natijalar yaxshilanadi. So'nggi tadqiqotlar o'qituvchi xatti – harakati bilan o'quvchi motivatsiyasi o'rtasida kuchli bog'liqlik topdi.

Ijtimoiy va tengdosh muhit. Tengdosh qo'llab – quvvatlashi, raqobat yoki hamkorlik muhitlari shaxsning masadlariga, o'zini baholashiga va motivatsiyasiga ta'sir qiladi – masalan, hamkorlik iqlimi ichki motivatsiyani rag'batlantirishi, haddan tashqari teskari solishtirish esa o'zini past baholashga olib kelishi mumkin.

Xullas, motivatsiya — shaxsning xulq-atvori va ruhiy holatini boshqaruvchi muhim omil bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. Motivatsiya shaxsni yo'naltiradi, rag'batlantiradi va doimiy harakatga undaydi. Shuning uchun har bir inson uchun o'z motivatsiyasini anglash va rivojlantirishi hayot yo'lida muhim vazifadir. Bu orqali shaxs o'z qobiliyatlarini maksimal darajada ishlatib, jamiyatga foydali bo'lishi mumkin. Motivatsiyaga e'tibor qaratish, uni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga shaxs tarbiyasining muhim qismi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyev, S.N. (2023). Motivatsiya va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni. "Ona tili va Ta'lim"
2. Tursunov, B.A. (2022). Motivatsiyaning huquqiy madaniyat shakllanishidagi roli. "Huquqshunoslik va jamiyat".
3. F.I.Xaydarov, N.I. Xalilova "Umumiy Psixologiya" T.2017
4. E. G'. G'.oziyev (2002). Umumiy psixologiya.1-kitob
5. E.G'. G'.oziev . Umumiy psixologiya. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.